



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI VA XALQARO
HUQUQ DOIRASIDA ODAM SAVDOSIGA QARSHI
KURASHISH**

Toshpo'latova Gulsanam Alimardon qizi

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti "Xalqaro huquq" fakulteti
1-bosqich talabasi
Tel(+998) 88 554-08-06
Gulsanamtoshpolatova6@gmail.com*

Annotatsiya: Maqolada odam savdosiga qarshi kurashishning xalqaro huquqiy masalalari tahlil qilinadi. Xususan, odam savdosi tushunchasi, uning xususiyatlari va xalqaro huquqiy asoslari ko'rib chiqiladi. Maqola Palermo protokoli, Inson huquqlari bo'yicha umumjahon deklaratsiyasi va Xalqaro mehnat tashkilotining tegishli konvensiyalariga va O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga asoslangan holda odam savdosiga qarshi kurash mexanizmlarini yoritadi. Shu bilan birga, Xalqaro hamkorlikdagi muammolar, qonunchilikdagi kamchiliklar va ijtimoiy-iqtisodiy sabablar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Odam savdosi, Xalqaro huquq, Palermo protokoli, Inson huquqlari, Majburiy mehnat, Transmilliy jinoyat, qurbanlarni himoya qilish, Davlatlararo hamkorlik, Huquqiy mexanizmlar, ijtimoi-iqtisodiy sabablar, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

Insoniyat yaralibdiki har taraflama mustaqil yashashga, tinch va farovon hayot kechirishga urinadi. O'zini xavsiz va erkin his qilish aslida eng oliy baxtdir. Lekin hammamizga ma'lumki ushbu shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda Odam savdosi eng dolzarb muammoga aylandi. Odam savdosi inson huquqlari va erkinliklariga qarshi sodir etiladigan jiddiy jinoyat bo'lib, bugungi global muammolardan biri hisoblanadi. Hattoki bosh qomusimiz Konstitutsiyada ham inson sha'ni, qadr-qimmati oliy qadriyat ekanligi, inson joniga qasd qilish eng og'ir jinoyat ekanligi, yashash huquqi har bir insonni ajralmas huquqi ekanligi moddalarida mustahkamlab qo'yilgan. Bu jinoyat shaxslarni majburiy mehnat, jinsiy ekspluatatsiya, qullik yoki organlarni sotish kabi holatlarga duchor qiladi. Odam savdosiga qarshi kurash xalqaro huquqiy hamkorlikni, milliy qonunchilikni takomillashtirishni va jamoatchilikni xabardor qilishni talab qiladi. Odam savdosi orasida yosh bolalarni o'g'irlash, tana a'zolarini sotish, jinsiy ekspluatatsiya kabi turlari keng tarqagan. Bu jinoyat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan inson sha'ni,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



qadr-qimmati va erkinligiga qarshi qaratilgan. Jumladan, Konstitutsiyaning 13-moddasida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari oliy qadriyat ekanligi ta’kidlangan. 26-moddaga ko‘ra, hech kim qynoqqa solinishi, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomala va jazoga duchor qilinmasligi kerak. Demak, odam savdosiga qarshi kurashish Konstitutsiyaviy majburiyatdir. Ushbu maqolada odam savdosiga qarshi kurashning xalqaro huquqiy asoslari, muammolari va yechimlari yoritiladi.

So’ngi vaqtarda O’zbekiston xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar o’zaro hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamladi. Mamlakatimizda jismoniy va yuridik shaxslar xorijga chiqishining qonuniy tartibi yo‘lga qo‘yildi, bu boradagi huquqiy asoslar yanada takomillashtirildi. Shu asosda tadbirkorlik, tijorat ishlari, sayyohlik, o‘qish yoki ishslash maqsadida xorijiy davlatlarga borayotgan yurtdoshlarimizning huquq va manfaatlari himoyasi to‘liq ta’minlanmoqda. O’zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida bu borada moddalar soni orttirildi va qonun bilan mustahkamlab qo‘yildi. Konstitutsiyamizning 13-14-18-23-25-26-moddalarida inson erkinligi va huquqlari aniq yoritib berilgan. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasida respublikada inson va fuqaroning huquqlari va erkinliklariga rioya etilishi demokratik huquqiy davlatning eng muhim tamoyili sifatida qayd etilgan. Shuningdek, Konstitutsiyaning 18-moddasi barcha fuqarolar teng huquqli ekanini belgilaydi. Bu tamoyillar odam savdosi qurbanlariga millati, jinsi yoki ijtimoiy holatidan qat’i nazar, teng himoya kafolatini beradi. Ammo dunyo jamoatchilagini global muammo sifatida tashvishga solayotgan — odam savdosi kabi illatlarning uchrab turishi o‘ta achinarlidir. Nega deganda, odam savdosi tufayli jismoniy shaxsning tovarga aylanishi mazkur qilmishning naqadar xavfliligi va o‘ta jirkanchligidan dalolat beradi. Millat ham, chegara ham tanlamaydigan ushbu ijtimoiy xavfli qilmish tufayli yosh bolalar hamda ayollarning ham odam savdosi qurbaniga aylanayotganiga aslo befarq qarab bo‘lmaydi. Shu ma’noda, odam savdosiga qarshi kurashish Birlashgan Millatlar Tashkilotining dolzarb faoliyat yo‘nalishlaridan biriga aylangani beziz emas. Buning dalili sifatida BMT odam savdosiga qarshi kurashish yuzasidan global reja qabul qilganini aytish mumkin. Ushbu hujjatda barcha davlatlar hamkorligini ta’minalash masalasi olg‘a surilgan, zamonaviy qullikni yo‘q qilish maqsadida jahon hamjamiyati birlashishga da’vat etilgan. Poytaxtimizda 2024-yil 29-iyul kuni o’tkazilgan “Odam savdosiga qarshi kurash: milliy yondashuvlar va xalqaro standartlar” mavzusidagi konferensiyada O’zbekiston bu borada erishgan yutuqlar va mavjud muammolar atroflicha tahlil etilgani diqqatga loyiq . Oliy Majlis Senati Raisi, Odam savdosiga qarshi kurashish va munosib mehnat masalalari bo‘yicha Milliy komissiya raisi T.Narbayevaning





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



konferensiya ishtirokchilariga murojaatida ta'kidlanganidek, oxirgi yillarda mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi barcha sohalarda, eng avvalo, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash yo'nalishida keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Bu yo'nalishda parlament, hukumat va fuqarolik jamiyatni institutlarining amaliy hamkorligi mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi. Buning natijasida turli xavf-xatarlarga, shu jumladan odam savdosiga qarshi kurashish yo'nalishida sezilarli yutuqlarga erishildi. Jumladan, odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha milliy qonunchilik takomillashtirildi, oxirgi 5-yilda ushbu yo'nalishda 40 taga yaqin normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi.

Haqiqatan ham, yurtimizda odam savdosiga qarshi kurashishning mustahkam huquqiy asoslari yaratilgan. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, odam savdosiga qarshi kurashish, undan jabrlangan shaxslarni har tomonlama himoya qilish, majburiy mehnatning oldini olish va unga to'liq barham berishning tashkiliy, huquqiy asoslarini mustahkamlash, bu borada davlat va nodavlat tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, mazkur yo'nalishlarda faoliyat yuritayotgan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston BMTning Odam savdosi va uchinchi shaxslar tomonidan fohishabozlikdan foydalanishga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyasiga 2003-yil 18-dekabrda qo'shilgan. O'z navbatida, 2008-yil 17-aprelda "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni amalga kiritilgan. Inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblangan yurtimizda odam savdosi jinoyatiga qo'l urgan kimsalarga nisbatan sudlar tomonidan qonuniy va adolatli jazo tayinlamoqda. Natijada qilmishga nisbatan jazoning muqarrarligi ta'minlanmoqda. Bundan tashqari, milliy qonunchilikni odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish bo'yicha bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, qisqa davrda:

majburiy mehnatga barham berildi;

odam savdosiga qarshi kurashish sohasidagi ishlar tizimlashtirildi;

xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolarimizning huquqiy himoyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi;

o'zbek paxtasiga qo'yilgan boykot bekor qilindi;

xalqaro reyting va indekslarda O'zbekistonning o'rni yaxshilandi.

Mamlakatimizda majburiy mehnatga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan yuqori baholangani va boshqa davlatlar uchun namuna sifatida e'tirof etilgani tahsinga sazovor. Shu bilan birga ta'kidlash





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OVALAR



joizki, odam savdosi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi jazolar belgilangan.

Odam savdosi jinoyati uchun qanday javobgarlik choralari belgilangan?

Odam savdosi, ya'ni odamni olish-sotish yoxud odamni undan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish —

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) o'g'irlash, zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqtish yoxud majburlashning boshqa shakllarini qo'llash orqali;

b) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan;

v) ojiz ahvoldaligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsga nisbatan;

g) aybdorga moddiy jihatdan yoki boshqa jihatdan qaram bo'lgan shaxsga nisbatan;

d) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;

y) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

j) xizmat mavqeidan foydalangan holda;

z) jabrlanuvchini O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasidan olib o'tgan holda yoki uni chet elda qonunga xilof ravishda ushlab turgan holda;

i) qalbaki hujatlardan foydalangan holda, xuddi shuningdek jabrlanuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujatlarni olib qo'ygan, yashirgan yoxud yo'q qilib yuborgan holda;

k) kishi a'zolarini kesib olib, boshqa kishiga ko'chirish (transplantat) maqsadida sodir etilgan bo'lsa, —

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) o'n sakkiz yoshga to'limganligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lsa;

b) jabrlanuvchining o'limiga yoki boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa;

v) o'ta xavfli retsidivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa;

g) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, —

sakkiz yildan o'n ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

(O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 135-moddasi)

Bugungi kunda dunyoda odam savdosini uchta keng turqalgan turi mavjud bo'lib, bular: jinsiy ekspluatatsiya (foxishabozlik), majburiy mehnat va odam a'zolarini sotishdir. Jinsiy ekspluatatsiya uchun asosan ayollar (shu jumladan qizlar) sotiladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Ma'lumotlarga ko'ra, ayollarning 72 foizi shu maqsadda sotilar ekan. Majburiy mehnatga jalganlarning asosiy qismini esa erkaklar tashkil qilar ekan. Bu ko'rsatgich 85,7 foizni tashkil qilishi odam savdosidan jabr ko'rgan erkaklarning aksariyati majburiy mehnat orqali amalga oshirilishini ko'rish mumkin. Odam a'zolarini sotish jinoyati esa juda ham ko'zga tashlanmaydigan odam savdosini turi bo'lib, odam savdosi "tovarlari" umumiyligi sonining 1 foizdan ko'p bo'lмаган qismini tashkil qilar ekan. Bu turdagи "tovarlar"ning yillik savdosi 1 mld. dollardan ortiq miqdorni tashkil qilishi jinoyatning mazkur toifasi ham jiddiy muammo ekanligini tasdiqlaydi. Bu jinoyatlarning asosiy sababi, tag zamiriga nazar tashlasak, ma'naviy qashshoqlik, ochko'zlik, dunyoga haddan tashqari hirs qo'yish va nafsiga qul bo'lislilikni ko'ramiz.

2013-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 30-iyul-Butunjahon odam savdosiga qarshi kurashish kuni deb e'lon qilingan. Chunonchi, 17.04.2008-yilda "Odam savdosiga qarshi kurashishtо 'g'risida"gi Qonun qabul qilingan bo'lsa, Jinoyat kodeksimizga ham (135-modda "Odamlardan foydalanish uchun ularni yollash", 137-modda "Odam o'g'irlash", 138-modda "Zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish") kabi moddalar kiritilib, ushbu toifa jinoyatlar uchun jazoning muqarrarligi ta'minlanishiga zamin yaratilgan. Qonunda, odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlarining shu yo'nalishdagi vazifa va faoliyatları aniq belgilab berilgan. Bundan tashqari, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 21.03.1950-yilda "Odam savdosi va fohishalikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurash to'g'risida"gi Konvensiya (O'zbekiston Respublikasi ushbu xalqaro hujjatga 12.12.2003-yilda qo'shilgan), BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 15.11.2000-yildagi 55/25-sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida"gi Konvensiyaga qo'shimcha odam savdosi, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosi haqida ogohlantirish va chek qo'yish hamda bunday jinoyatlar uchun jazolash to'g'risidagi bayonnomma (O'zbekiston Respublikasi 28.06.2001-yilda ratifikatsiya qilgan), BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 20.05.2000-yildagi "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga doir, bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taaluqli Fakul'tativ protokol" (O'zbekiston Respublikasi 11.12.2008-yilda qo'shilgan), Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan 25.06.1957-yildagi qabul qilgan "Majburiy mehnatni tugatish to'g'risidagi" 105-konvensiya (O'zbekiston Respublikasi 30.08.1997-yilda ratifikatsiya qilgan), Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan 17.06.1999-yilda qabul qilingan "Bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risidagi" 182-konvensiya (O'zbekiston Respublikasi 08.04.2008-yilda ratifikatsiya qilgan) qabul





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OVALAR



qilingan bo'lib, ushbu hujjatlarning barchasi odam savdosiga qarshi kurash, bolalar va majburiy mehnatni cheklash maqsadlariga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Odam savdosi global muammo bo'lib, bu jinoyat inson huquqlari va xalqaro xavfsizlikka jiddiy tahdid solmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'y lab har yili millionlab odamlar odam savdosining qurboni bo'lib, ularning katta qismi ayollar va bolalardan iborat. 2021-yilgi BMTning Giyohvandlik va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) hisobotiga ko'ra, odam savdosi qurbonlarining 50% dan ortig'i jinsiy ekspluatatsiya uchun sotiladi, qariyb 38% majburiy mehnatga jalb qilinadi. Xalqaro huquqiy hujjatlar, jumladan, Palermo Protokoli, odam savdosiga qarshi kurashda muhim rol o'ynaydi. Ammo amaliyotda ushbu hujjatlar doimiy muammolar bilan duch kelmoqda. Davlatlararo huquqiy hamkorlik yetarli darajada emas, ko'plab mamlakatlarda qonunchilik zaif va qurbonlarga yordam ko'rsatish tizimi rivojlanmagan. O'zbekiston misolida ham odam savdosiga qarshi kurash muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston hukumati 2023-yilda odam savdosiga qarshi kurashni kuchaytirish maqsadida yangi qonunchilik islohotlarini amalga oshirdi, jumladan, qurbonlarga huquqiy yordam ko'rsatishni takomillashtirdi. Shuningdek, xalqaro hamkorlik doirasida mintaqaviy tashabbuslarda faol ishtirok etmoqda. Odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha,

Tavsiyalar:

1. Odam savdosiga qarshi kurashda xalqaro va milliy huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish.
2. Jabrlanuvchilarini himoya qilish va ularning reabilitatsiyasi uchun maxsus markazlarni tashkil etish.
3. Davlatlararo axborot almashinushi va hamkorlikni oshirish.
4. Xalqaro tashkilotlarning moliyaviy va texnik yordamlarini kengaytirish.

Odam savdosiga qarshi kurashning muvaffaqiyati xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish va qurbonlarga keng qamrovli yordam dasturlarini joriy etishga bog'liq. Xalqaro va milliy sa'y-harakatlar uyg'un holda amalga oshirilsa, bu muammo sezilarli darajada kamayishi mumkin.Joriy matn (parcha):

> Xalqaro va milliy sa'y-harakatlar uyg'un holda amalga oshirilsa, bu muammo sezilarli darajada kamayishi mumkin. Buning uchun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy tamoyillarini xalqaro huquqiy majburiyatlar bilan uyg'unlashtirish, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini to'laqonli himoya qilish va davlatning ushbu yo'nalishdagi majburiyatlarini qat'iy amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
- 2.Inson huquqlari umumjahon deklaratasiysi (1948)
- 3.Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) Konvensiyalari
- 4.Interpolning odam savdosiga qarshi kurash bo’yicha faoliyati :-- Rasmiy veb-sayt: www.interpol.int.
- 5.*http://nhrc.uz/oz/news/odam-savdosiga-qarshi-kurashish-maqsadida-milliy-va-xalqaro-hamkorlikni-mustahkamlash*
6. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

